

ELEMENTS OF WELLNESS IN NATIONAL PEDAGOGY

Barakayeva Gavxar Luqmonovna

Researcher of Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

Annotation: When modern pedagogy is combined with traditional national pedagogy, it can be accepted by the people and be effective. In the formation of a collective and complex system, which has evolved over centuries in the education system of our country and is called Uzbek national pedagogy, are based primarily on spiritual and moral values and criteria. In this process, the principles of morality and decency, the principles of humanity and tolerance, the factors of hard work and justice are priorities. Also, in the effective organization of the domestic pedagogical process among participants in the educational process, special attention is paid to the national characteristics of our people, including respect for adults and honor for children, modesty, tolerance, and team spirit.

Ijtimoiy hayotda har bir kishining shaxs sifatida ulg‘ayib, unib-o‘sib, shakllanishida ta‘lim va tarbiya tizimi muhim o‘rin tutadi. Bolaning uch yoshidan boshlab, yetuk shaxs bo‘lib jamiyatga qo‘shilishigacha bo‘lgan davr uzluksiz ta‘lim bilan birga kechadi.

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo‘li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligini e‘tirof etib, ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deya belgilandi” [6]. Mazkur masalalar, ya‘ni ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari, prinsiplari hamda yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va unga bog‘liq ko‘plab qonunosti hujjatlarida belgilab berilgan.

O‘z mazmuni, ma‘nosi, mohiyatiga binoan pedagogika ta‘lim va tarbiya berish san‘ati, samarali usul va vositalar orqali tarbiyalash mahorati

demakdir. “Pedagogika - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan” [7] hisoblanadi. Mazkur fan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek muhim ijtimoiy buyurtmani amalga oshirib, jamiyat uchun eng muhim va dolzarb vazifani bajaradi. Shu o’rinda biz milliy pedagogika tushunchasida quyidagi ta’rifni berib o’tamiz: Milliy pedagogika bu - ta’lim tarbiya jarayonini ma’lum bir bir millatning o’ziga xos xususiyatlari, axloqiy, diniy va ma’naviy merosi, qadriyatlar tizimi, shaxs tarbiyasi haqidagi o’ziga xos qarashlaridan kelib chiqqan holda tashkil etishni nazarda tutuvchi kompleks faoliyatni nazarda tutadi. Milliy pedagogikaning asosiy shartlaridan biri – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ajdodlar tajribasini o’rganish, milliy an’ana va qadriyatlardan samarali foydalanish bilan belgilanadi. “Milliy pedagogika xalqning ta’lim-tarbiya masalasiga oid qarashlari, g’oyalari, an’analari asosida shakllanadi. Milliy pedagogikada har bir millat va xalqning ijtimoiy tajribasi, tarixiy-ma’naviy, axloqiy qarashlari mujassamlashadi. Shuning uchun ham, milliy pedagogik usullar xalqqa yaqin va tushunarli bo’lib, jamiyat a’zolari tomonidan oson, izchil qabul qilinadi. Shu boisdan rivojlangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qabul qilinishi hamisha qiyin kechgan. Qachonki, zamonaviy pedagogika an’analarga asoslangan milliy pedagogika bilan uyg’unlashtirilsagina xalq tomonidan qabul qilinishi va samara berishi mumkin. Mamlakatimiz ta’lim tizimida asrlar davomida shakllangan va o’zbek milliy pedagogikasi nomini olgan majmuaviy, kompleks sistemani tashkil etishda, eng avvalo, ma’naviy-axloqiy qadriyat va mezonlarga asoslaniladi. Bu jarayonda axloq va odob prinsiplari, insonparvarlik va bag’rikenglik tamoyillari, mehnatsevarlik va adolatlilik omillari ustuvor hisoblanadi. Shuningdek milliy pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda ta’lim jarayoni ishtirokchilari orasida, xalqimizga xos milliy

xususiyatlar, jumladan, kattalarga hurmat-kichiklarga izzat, bosiqlik, muhosaviylik, jamoaviylik kabi mezonlarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida milliy pedagogika sistemasining takomillashuvi va rivoji juda muhim funksional faoliyat bo'lib, u quyidagi talab va vazifalar orqali amalga oshadi:

- ✓ Milliy ma'naviyatni, axloqiy, falsafiy, tarixiy meros va madaniyatni chuqur o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlash. Shu maqsad yo'lida mamlakatimizda barcha davlat ta'lim muassalarida mamlakatimiz tarixi bo'yicha majburiy fan blokining kiritilishi ham mazkur maqsad yo'lidagi qadamlardan biridir.
- ✓ Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning sinovdan o'tgan va samara bergan pedagogikasini an'analarga asoslangan milliy ta'lim tizimi va pedagogikasiga uyg'unlashtirish.
- ✓ Pedagogika sohasida zamonaviy kadrlarni tayyorlashda, avvalo, milliy ma'naviyat, madaniyat, ijtimoiy muhit talablarini inobatga olish.
- ✓ O'qitish hamda tarbiyalash jarayonida milliy, diniy, umuminsoniy an'ana va qadriyatlarning konstruktiv imkoniyatlaridan unumli foydalanish.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni talabidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz ta'lim sistemasida har bir fan va har bir mavzu o'zining ta'limiy maqsadidan tashqari, tarbiyaviy maqsadiga ham ega bo'lishi lozim.

Jumladan, Ta'lim to'g'risidagi qonunnig 4-moddasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasining asosiy prinsiplariga bag'ishlangan bo'lib, uning oltinchi va yettinchi bandlariga binoan, "ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati" [1] asosiy ta'lim prinsiplari sifatida e'tirof etiladi. Qonunchiligimizda belgilangan mazkur ta'lim prinsiplarida ko'rib turganimizdek,

ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi hamda ular asosida ta'limning shakllantirilishi masalasiga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilgan. Vaholanki, ajdodlarimiz milliy pedagogikada avvalo arbiya masalasini jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuni sifatida ko'rib chiqishgan. Zero Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir" [2; 58], degan ibratli mulohazalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, milliy an'analardagi sog'lomlashtirish g'oyalari orqali estetik ong va estetik tafakkurni shakllantirishda, avvalo, tarbiya tizimi alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilishida ta'limning vazifasi o'ta muhim hisoblanadi. Shu boisdan ham, barkamol shaxsni shakllanishida ta'lim va tarbiyaning konstruktiv imkoniyatidan oqilona foydalanish zarurat sanaladi.

O'zbek milliy pedagogikasidagi ustuvor masalalar, mehr, muhabbat, muqaddas deb e'tirof etilgan oilaga sadoqat, farzandga, ota-onaga, yaqinlarga munosabat mavzusi asrlar davomidagi milliy tajriba, hayot tarzi va mintallitet ta'sirida shakllangan, desak xato hisoblanmaydi. Bu tushunchalarda pedagogik amaliyotda sinalgan tarbiya me'yorlari va qoidalari o'z aksini topgan.

O'zbek milliy pedagogikasining yana bir muhim bunyodkorlik jihati milliy ta'lim va tarbiya jarayonida mehnat madaniyatini shakllantirish, ya'ni kasb- hunarga yo'naltirish bilan belgilanadi. Zero, mehnat tarbiyasi va kasb hunar ko'nikmasi sog'lom tarbiyaning eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, mehnatsevarlik nafaqat axloqiy fazilat balki oila va jamiyatning iqtisodiy farovonligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri sanaladi. Maktablarimizda yo'lga qo'yilgan mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etilishi natijasida yoshlarga mehnat qilishga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutilgan. Zero, hozirgi zamonaviy islohotlar davrida, butun jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotga ega bolish maqsadida qilinayotgan harakatlar hamda

ilm-fan yuksalishi sharoitida mehnat jarayonining konstruktiv ahamiyati tobora muhim bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, mehnat jarayoni va mehnat munosabatlarining ham turli innovatsion shakl va ko‘rinishlari shakllanmoqda. Hozirgi davrda mehnat tushunchasining jismoniy mazmun-mohiyatiga nisbatan intellektual, ilmiy, aqliy mohiyati kengayib bormoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, mehnat qanday shakilyoki ko‘rinishda bo‘lmasin, ezgulikka qaratilgan bo‘lsa, albatta, shaxsda ma’naviy-iqtisodiy qoniqish tuyg‘usini olib keladi. Shu o‘rinda A.Q.Munavvarovning ta’biri bilan aytganda, “mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma’lum faoliyatni bajarishda mas’uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish, o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini to‘liq namoyon etishga bo‘lgan ichki yehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo‘lida amaliy harakatni olib borish lozim” [5;132].

Milliy pedagogikada sog‘lomlashtirish, sog‘lom tarbiya masalalarining ustivor jihatlaridan yana biri axloqiy tarbiyadir. “Axloq — ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi” [5;133]. Xalqimizda “Olim bo‘lma – odam bo‘l”, “Ilmning bezagi odobdir”, qabilidagi maqollar pedagogikamizning axloqiy-tarbiyaviy funksiyasi va maqsadi ta’lim jarayonida ustivor ekanligini ifodalaydi. Axloqiy ta’lim-tarbiyaning oqilona tashkil etilishi, jamiyatda munosib ijtimoiy muhitni, ma’naviy makonni shakllanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bundan tashqari bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarga nisbatan aksiologik munosabatda bo‘lish muhim masala sifatida yuqori ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. R.G.Abdulatipov shunday ta’kidlaydi: “Ta’lim tamoyillarida ichida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy

mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi" [3; 124]. Shu bilan birga ta'lim sistemasida oqilona tarbiya berish orqali ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-mafkuraviy, falsafiy-estetik madaniyat shakllantiriladi.

Bulardan tashqari o'zbek milliy pedagogikasida sog'lomlashtirish masalalari ta'lim sistemasida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkillashtirish bilan chambarchas aloqadordir. Zero, oqilona tashkil etilgan jismoniy tarbiya, sport ta'limi va madaniyati kishilarning sog'lig'ini mustahkamlashda, harakatchanlikni oshirishda, qon aylanishini yaxshilashda, umr davomiyligini uzayishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mulohazalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

1. Milliy pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi orqali yoshlarda sog'lom turmush tarzi hamda sog'lomlashtirish g'oyalari shakllanishi ta'minlanadi.
2. Har bir shaxsning ma'naviy va jismoniy barkamolligi, ongu-tafakkurining mustahkamligi, qobiliyatlilik mezonlari hamda intellektuallik darajasi, eng avvalo, sog'lomlashtirish tamoyillariga borib taqaladi.
3. Milliy ta'lim va tarbiya tizimida yoshlarni har tomonlama sog'lomlashtirish uchun milliy an'analarimiz bilan uyg'un faoliyatni tashkil etilishi samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 23.09.2020. O‘RQ-637-son.
2. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohudaxloq. — Toshkent, O‘qituvchi, 1996. - B.58*
3. Абдулатипов Р. Г. Человек. Нация. Общество. — М.: Политиздат, 1991. - Б.124
4. Аюпов А. А. ва бошқалар. Мустакиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият куришнинг иктисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. Т.: Университет, 2001.
5. *Munavvarov A.Q. Pedagogika. — Toshkent, O‘qituvchi, 1993.*
6. Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. — Тошкент: ЧАШМА ПРИНТ, 2008. – Б. 159.
7. Хасанбоева О ва бошқалар. Педагогика тарихи. Т.: Ўқитувчи, 2001.